

Corona virusi tarqalishini to'xtatishga yordam bering!

Hozirda dunyo bo'ylab yangi corona virusi tarqalmoqda. Virus covid-19 nomli kasallikni keltirib chiqarib, bu kasallik ko'pincha odatiy shamollash yoki influensani eslatadi. Bu kasallik bilan chalinganlarning ko'pchiligida kasallik juda yengil o'tadi.

O'zingiz va boshqalarga bu kasallik yuqmasligini oldini olish uchun quyidagilarga rioya qiling:

- Kamida 20 daqiqa davomida qo'llaringizni sovun bilan iliq suvda tez-tez yuvib turing.
- Agar qo'llaringizni yuvishga imkoniyatingiz bo'lmasa, u holda qo'l spirtidan foydalaning.
- Ko'zlaringiz, burun yoki og'zingizni ushlamaslikka harakat qiling.
- Aksirsangiz og'zingizni tirsagingiz bilan yoping.
- Kasal odamlar bilan yaqin kontaktga [aloqaga] bormang.
- Agar o'zingiz kasal bo'lsangiz yoki sizda yengil shamollash alomatlari bo'lsa, boshqa odamlar bilan aloqa qilmay turing.

Corona virusi va covid-19 haqida ko'proq ma'lumotlar:

- Krisinformation.se internet sahifasidan ma'lumotlar topishingiz mumkin.
- Agar krisinformation.se sahifasidan ma'lumotlar topolmasangiz, u holda 113 13 raqamiga qo'ng'iroq qiling.
- Agar sizga tibbiy maslahat kerak bo'lsa, u holda 1177 raqamiga qo'ng'iroq qiling.
- Migrationsverket.se internet sahifasida corona virusi Migratsiya hizmati faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida o'qishingiz mumkin.